

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH  
YO'LLARI.

**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti*

*Menejment kafedrasi dotsenti*

**Toxirov Davronbek Shuxratjon o'g'li**

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti*

*Menejment yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** *Maqolada asosan sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi hamda sanoat korxonalarida paydo bo'ladigan bir qancha muammolarni sabablari shu o'rinda, yetakchi sanoat korxonalaridan tajriba almashish usulidan foydalanish, korxonalarining mas'ul shaxslarini iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarni yuksaltirish yo'llarini takomillashtirish, texnik ta'minotni yangilash, xodimlarni boshqarishda yangi boshqaruv turlaridan foydalash, Xodimlarning ichki motivatsiyasi va rag'batlantirilishini yaxshilash orqali xodimlarning samaradorligini oshirish imkoniyatlari haqida ma'lumot beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *resurlarni boshqarish, jahondagi yirik korxonalardan tajriba almashish, biznes jarayonlari, korxonada texnik quvvati, sanoat korxonalarida, iqtisodiy tizim, ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni takomillashtirish, rejalashtirish, boshqaruv tizimi, zamonaviy texnologiyalar.*

**ECONOMIC MECHANISMS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES WAYS OF  
DEVELOPMENT.**

**Abstract.** *The article mainly focuses on the development of economic processes in industrial production and includes several results of industrial production. In addition, to monitor the increase of support related to the renewal of supplies, the use of new types of management in technical service, the improvement of internal motivation and incentives of the employee.*

**Key words:** *resource management, exchange of experience from global economic experience, processes, enterprise technical capacity, industrial production, economic system, production, production support, business, management system, modern technologies.*

**Kirish.** Ko'plab rivojlangan va yetakchi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarini modernizatsiyalash va texnik yangilash jarayonlarini

tezlashtirish talab etiladi. sanoat korxonlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi 169-sonli farmoni "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-sonli Farmonida belgilab berildi. Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatda "O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda "Iqtisodiyotni rivojlanirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'linmasida tarkibiy o'zgarishlarlarini chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar kelirib o'tildi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi.

Dastlab Sanoatning ijtimoiy ishlab chiqarishning mustaqil tarmog'i sifatida vujudga kelishi hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi – ikkinchi eng yirik mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Kapitalistik Sanoat G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 14—15-asrlarda paydo bo'ddi va oddiy kapitalistik kooperatsiya, manufaktura va yirik mashina industriyasi – fabrika bosqichlarini bosib o'tdi, 18-asr oxiri – 19-asr boshlarida manufakturadan mashina industriyasiga o'tish dastlab Angliyada, keyinroq boshqa Yevropa mamlakatlarida sanoat to'ntarishi tusini oldi. O'zbekiston xududida Sanoat taraqqiyoti ildizini uzoq tarixga ega bo'lgan hunarmandchilik tashkil etgan. Samarqand, Buxoro, Urganch, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon kabi shaharlarda mayda va yirik hunarmandchilik rivoj topdi. O'zbekistonda haqiqiy ma'nodagi Sanoatning paydo bo'lishi 19-asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi. 1941—1945-yillardagi urush davrida O'zbekistonga 90 ta sanoat korxonasi ko'chirib keltirildi.

Respublikamizda joriy yilning 1-oktabr holatiga sanoat sohasida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 109 527 ta bo'lib, ularning o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,7 %ni tashkil etdi. So'nggi yillarning mos davrida ushbu sohada ro'yxatdan o'tgan korxonalarning dinamikasi quyidagicha:

2019-yilda – 71 670 ta  
2020-yilda – 85 278 ta  
2021-yilda – 99 034 ta  
2022-yilda – 103 575 ta  
2023-yilda – 109 527 ta

Dastlabki yo'nalish O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlardir. Har qanday kompaniya inson resurslarini, moddiy va moliyaviy holatini boshqaradi, ammo inson

resurslarini boshqarish barcha rejalar va maqsadlarga erishishni ta'minlaydi. Zamonaviy kompaniya tizimli yondashuvga rioya qilgan holda kadrlar siyosatini ishlab chiqishi va yangilashi kerak. Inson resurslariga sarmoya kiritish zarurligini tushunishi muhim sanaladi. Shundagina kompaniya bozorda o'zining munosib o'rnini egallaydi, rivojlanishda davom etadi. Bu fikr inson resurslarini boshqarish faqat xodimlar bilan bog'liq ma'muriy faoliyat bilan cheklanib qolmasligini tushunishga olib keladi. Bu holatda, albatta, iqtisodiy tizim tushunchasini bilish lozim. Iqtisodiy tizim - iqtisodiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonida paydo bo'ladigan asosiy iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning mazmuni va shaklini aniqlab beradigan, mamlakatda tarixan paydo bo'lgan yoki joriy etilgan, amal qiladigan tamoyillar, qoidalar, qonun yo'li bilan mustahkamlangan normalar majmui. Iqtisodiy tizim doirasida iqtisodiyot subyektlari, ishlab chiqarish omillari o'zaro munosabatga kirishadilar va bu munosabatlar ma'lum qonunqoidalarga binoan boshqariladi. Iqtisodiy tizim faoliyati mulk, pul va pul tizimi, davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar, soliq, daromad, reja, foyda kabi bir qator vositalar yordamida tashkil qilinadi. Iqtisodiy tizim masalasiga qarashlarda turlicha yondashuvlar va fikrlar mavjud. Jahon iqtisodiy adabiyotlarida xo'jalik - iqtisodiy tizimlarni ishlab chiqarish vositalariga egalik shakli va iqtisodiy faoliyat muvofiqlashtirish shu bilan birga, boshqarish usuliga ko'ra tasniflash ko'proq tarqalgan. XXI asr boshlaridagi qarashlarda iqtisodiy tizimni baholashda moddiyashyoviy va ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar birgalikda qo'llaniladi. Iqtisodiy tizimning eng muhim bir qator belgilari ta'riflanadi. Ularga jamiyatdagi iqtisodiy resurslar tavsifi, texnika va texnologiya darajasi, ishlab chiqarish xarakteri, yaratilgan mahsulot va xizmatlar tarkibi, iqtisodiy munosabatlar tabiati, iqtisodiyotni boshqarish usuli hamda iqtisodiy siyosat mazmuni kiradi. Qonunchilar, xususi kompaniyalar ma'murlari va mansabdor shaxslari istalgan maqsadlarga erishish uchun institutlarni yaratadilar. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ham ko'plab sanoat korxonalarini o'z ish faoliyatini yuritib, xalq uchun xizmat qilyapti. Ayniqsa, oxirgi 5 yillikda korxonalar va tashkilotlar soni sezilarli darajada oshib bordi. Tashkilot va korxonalarda bevosita iqtisodiy hamda moliyaviy muammolar mavjud bo'lishi bu normal holatdir. Korxonaning moliyaviy muammolarining asosiy sabablari: sotishni rejalashtirish va amalga oshirish (ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan). Mexanizm ham iqtisodiy tizimning yana bir muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Mexanizm -bu iqtisodiy faoliyatni boshqaradigan va muvofiqlashtiruvchi institutlarni modellashtiruvchi matematik tuzilma. Bunday muassasalar ko'p, misol tariqasida bozorlarni biz uchun eng tanishlaridir desak bo'ladi. Qonunchilar, xususi kompaniyalar ma'murlari va mansabdor shaxslari istalgan maqsadlarga erishish uchun institutlarni yaratadilar.

• Mijozning buyurtmalarini qabul qilish va o'zgartirish bilan ishlashning aniq tartiblari mavjud bo'lmaganda. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish rejasining tez-tez o'zgarishiga olib keladi, bu esa ba'zi ishlarning to'xtab qolishiga va boshqalarning

boshlanishiga olib keladi. Natijada tugallanmagan ishlab chiqarish va ishlab chiqarish tannarxining oshishi kuzatiladi. Bunday sharoitlarda ta'minot xizmati amalga oshirilishini ta'minlashga majburdir.

- Rejalashtirish va ishlab chiqarishni boshqarish. Tegishli vositasiz optimal (mijozlarning buyurtmalarini bajarish va tayyor mahsulot narxi bo'yicha) ishlab chiqarish dasturlarini tezda tuzish imkonsiz bo'ladi. Bu ishlab chiqarishni tez va maqbul qayta rejalashtirishning mumkin emasligiga olib keladi.

- Ishlab chiqarishni loyihalash va texnologik ta'minlash. Dizayn va yoki texnologiyani tez-tez o'zgarishi (ushbu o'zgarishlarni amalga oshirishning aniq tartib-qoidalari mavjud bo'lmaganda) ishlab chiqarishdagi nosozliklarga va zarur materiallar va butlovchi qismlarni sotib olishni rejalashtirishning mumkin emasligiga olib keladi.

- Rejalashtirish va ta'minotni boshqarish (sotish rejalari va ishlab chiqarish rejalarining tez-tez o'zgarishidan ortiqcha zaxiralarni yaratish yoki oshirib yuborilgan standartlarni belgilash orqali sug'urta qilishga urinishlar bilan). Ombordagi zaxiralarning maqbul darajasini ta'minlamaydigan usullardan foydalanish.

- Axborot. Korxonaning holati to'g'risida tezkor (real vaqt rejimida) va ishonchli (u sodir bo'lgan joylarda kiritish) ma'lumotlarning yo'qligi. Shubhasiz, yuqorida ko'rsatilgan barcha muammolar va ularni keltirib chiqargan sabablar, korxonaning barcha funksional quyi tizimlarini bitta tizimda ishlaydigan yagona tizimga ulash imkonini beradigan zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan korxonani boshqarishning tegishli vositasi mavjud bo'lgandagina korxonaga aniq ko'rinishi mumkin bo'lgan yagona axborot muhiti paydo bo'ladi.

Korxonaning noishlab chiqarish xizmatlaridan ma'lumotlarga tezkor kirish asosida ishlab chiqarishni rejalashtirishni muvofiqlashtirish va ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish mumkin, bu esa raqobatbardosh mahsulotlarni o'z vaqtida chiqarishni ta'minlaydi, natijada esa korxonaning yuqori raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ushbu vazifalarning ba'zilarini ish sifatini oshirish orqali hal qilish mumkin. Bu tabiiy ravishda malakali kadrlar sonining ko'payishiga, funksional ixtisoslashuvning chuqurlashishiga va biznes jarayonlarining murakkablashishiga olib keladi. Shu bilan birga, katta ixtisoslashuv funksional bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun ko'proq harakat talab qiladi. Ishlar, hujjatlar, pullar, materiallar oqimlari bir-biri bilan va mehnat resurslari potentsiali bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak, aks holda ishchilar bo'sh qoladi va uskunalar esa yaroqsiz holatga keladi. Bu moliyaviy resurslar, axborot, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlarning "muzlatib qolishiga" olib keladi. Tugallanmagan ishlar va natijada kompaniyaning umumiy xarajatlari oshadi. Qisqa vaqt ichida amalga oshiriladigan ko'plab xilma-xil harakatlar va jarayonlarni tartibga solishga ortib borayotgan ehtiyoj jarayonlarni boshqarish rolining oshishiga va tashkiliy tizimda tub tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi. Biznes jarayonlarni boshqarishni amalga oshirish jarayonida rahbariyat va xodimlar duch keladigan mavjud muammolarni, shuningdek, korxonani boshqaruv tizimida sodir

bo'ladigan jarayonlarning asosiy tendentsiyalarini aniqlash uchun so'rov shaklida ilmiy tadqiqot o'tkazish ham samarali yechimlardan biri bo'ladi. So'rovning anonimligi respondentlardan yetarlicha ishonchli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, sanoat korxonalarining rivojlanishi uchun mutlaqo davomiy iqtisodiy mexanizmni rivojlantirish talab etiladi. Ishlab chiqarish iqtisodiy faoliyatning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish shunday jarayonki, unda ishlab chiqarish omillari o'zaro qo'shib, insonlarning turli – tuman ehtiyojlarini qondirish uchun xilma –xil moddiy va nomoddiy ne'matlar yaratiladi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ichki omillar qatoriga tadbirkorlik qobiliyati, korxonada personalni, kommunikatsiya samaradorligi, korxonaning tashkiliy tuzilishi, innovatsion faoliyatning bozorga yo'naltirilganligi va innovatsiyalar uchun resurslarning yetarilish darajasi kabi omillar kiradi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga esa mamlakatda maslahat va konsalting xizmatlari, moliyaviy yordam, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qonunchilik kabi omillar inobatga olinishi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi 169-sonli farmoni “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” PF4947-sonli Farmonida belgilab berildi. Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatda “O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda “Iqtisodiyotni rivojlanirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari”.

3. Ubaydullayev, L. X., & Dedajanov, B. N. (2021). Raqamli iqtisodiyot: afzalliklari va xatarlari. Markaziy Osiyo Ijtimoiy Tadqiqotlar Jurnal, 2 (01), 153-159.

4. Musayev, Nuriddin. „Sanoat“ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

5. Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. —T.: «Sharq» 2005.

6. Эргашева, Ф. И. (2023). ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАРАЁНИДА БОШҚАРУВНИНГ АСОСИЙ МАСАЛАЛАРИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

7. Dedajanov, B. N. (2022). Menejment. Darslik.–Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.